

ANDIJON SHAHRIDA JOYLASHGAN MAKTABLAR O‘QUVCHILARINI JISMONIY VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISH DARAJASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK TAHLILI

Abduvaliyeva Feruza Muxamatnurovna
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar joriy etilishi sharoitida zo‘riqishning o‘quvchilar jismoniy, intellektual ish bajarish qobiliyatiga ta’sirini fiziologik asoslash ta’lim jarayonini optimallashtirishda dolzarb ahamiyatga ega [1].

Kalit so‘zlar: diapazon, Sentil-shkala, barqaror, Diqqat

Аннотация: В условиях внедрения инновационных педагогических технологий в образование физиологическое обоснование воздействия стресса на способность студентов выполнять физическую и умственную работу приобретает актуальное значение в оптимизации образовательного процесса [1].

Ключевые слова: диапазон, центильная шкала, стабильность, внимание.

Abstract: In the context of the introduction of innovative pedagogical technologies in education, the physiological justification of the impact of stress on the ability of students to perform physical and intellectual work is of urgent importance in the optimization of the educational process [1].

Key words: range, centile-scale, stable, Attention

Tadqiqotlarda (2021-2022 yil) Andijon shahrida joylashgan №1-, №5-, №6-, №11-, №13-, №15-, №24-, №30-, №31-, №48-maktablarda o‘quvchilarning (1-11 sinf) jismoniy va intellektual rivojlanish darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Asosiy jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari (tana vazni, bo‘y uzunligi, ko‘krak qafasi aylanasi) tahlilida standart antropometrik uslublar, intellektual rivojlanish darajasi “Burdon korrektura sinovi” testi, “Anfimova jadvali” testi asosida baholandi [2; 3; 4; 5].

Jismoniy va aqliy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik Spirmen korrelyatsiya koeffitsenti yordamida baholandi [6].

Maktablar o‘quvchilarida (7-17 yosh) tana vazni o‘g‘il bolalarda 7-17 yoshda o‘rtacha mos ravishda – 22,11±0,34, 26,15±0,16, 27,11±0,42, 30,94±0,27, 34,29±0,35, 38,49±0,48, 42,21±0,53, 45,99±0,30, 52,12±0,23, 56,26±0,32 va 59,21±0,38 kg bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida 18,27±0,04, 8-9 yoshda 3,67±0,04, 9-10 yoshda 14,13±0,15, 10-11 yoshda 10,83±0,09, 11-12 yoshda 12,25±0,16, 12-13 yoshda 9,66±0,05, 13-14 yoshda 8,96±0,03, 14-15 yoshda 13,32±0,12, 15-16 yoshda 7,94±0,04 va 16-17 yoshda 5,24±0,05% ga ortishi aniqlandi. Qizlarda 7-17 yoshda tana vazni o‘rtacha mos ravishda – 21,79±0,18, 25,14±0,24, 27,07±0,63, 30,66±0,28, 33,56±0,37, 37,61±0,67, 43,92±0,21, 46,94±0,93, 48,92±0,46, 56,55±0,61 va 57,62±1,03 kg bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida 15,37±0,18, 8-9 yoshda 7,68±0,03, 9-10 yoshda 13,26±0,10, 10-11 yoshda 9,46±0,03, 11-12 yoshda 12,07±0,08, 12-13 yoshda 16,78±0,13, 13-14 yoshda 6,88±0,02, 14-15 yoshda 4,22±0,03, 15-16 yoshda 15,59±0,09 va 16-17 yoshda 1,89±0,01% ga ortishi aniqlandi.

Bo‘y uzunligi o‘g‘il bolalarda 7-17 yoshda o‘rtacha qiymatlari mos ravishda – 121,13±0,95, 127,70±1,12, 132,34±1,80, 138,81±1,43, 142,82±1,08, 147,63±0,86, 154,39±1,29, 161,42±1,55, 165,29±2,60, 170,47±2,10 va 172,82±3,23 sm bo‘lib, 7-8 yosh

diapazonida $5,42 \pm 0,02$, 8-9 yoshda $3,63 \pm 0,01$, 9-10 yoshda $4,89 \pm 0,02$, 10-11 yoshda $2,89 \pm 0,03$, 11-12 yoshda $3,37 \pm 0,02$, 12-13 yoshda $4,58 \pm 0,02$, 13-14 yoshda $4,55 \pm 0,01$, 14-15 yoshda $2,39 \pm 0,01$, 15-16 yoshda $3,13 \pm 0,02$ va 16-17 yoshda $1,38 \pm 0,03\%$ ga ortishi aniqlandi. Qizlarda 7-17 yoshda bo‘y uzunligi o‘rtacha mos ravishda – $120,44 \pm 0,58$, $126,38 \pm 0,72$, $131,58 \pm 1,23$, $138,66 \pm 1,06$, $144,16 \pm 0,97$, $147,81 \pm 1,30$, $155,36 \pm 1,47$, $157,92 \pm 2,15$, $161,24 \pm 2,05$, $161,78 \pm 2,57$ va $162,60 \pm 3,34$ sm bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida $4,93 \pm 0,02$, 8-9 yoshda $4,11 \pm 0,04$, 9-10 yoshda $5,38 \pm 0,03$, 10-11 yoshda $3,97 \pm 0,02$, 11-12 yoshda $2,53 \pm 0,02$, 12-13 yoshda $5,11 \pm 0,04$, 13-14 yoshda $1,65 \pm 0,07$, 14-15 yoshda $2,10 \pm 0,01$, 15-16 yoshda $0,33 \pm 0,01$ va 16-17 yoshda $0,51 \pm 0,01\%$ ga ortishi aniqlandi.

Ko‘krak qafasi aylanasi o‘g‘il bolalarda 7-17 yoshda o‘rtacha qiymatlari mos ravishda – $58,10 \pm 0,47$, $62,41 \pm 0,94$, $63,68 \pm 0,71$, $64,01 \pm 0,59$, $67,44 \pm 0,83$, $70,46 \pm 0,75$, $71,67 \pm 1,17$, $74,57 \pm 2,04$, $77,27 \pm 1,05$, $81,26 \pm 0,90$ va $84,40 \pm 1,07$ sm ga teng bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida $7,42 \pm 0,06$, 8-9 yoshda $2,03 \pm 0,02$, 9-10 yoshda $0,52 \pm 0,01$, 10-11 yoshda $5,36 \pm 0,05$, 11-12 yoshda $4,48 \pm 0,03$, 12-13 yoshda $1,72 \pm 0,02$, 13-14 yoshda $4,05 \pm 0,03$, 14-15 yoshda $3,62 \pm 0,02$, 15-16 yoshda $5,16 \pm 0,04$ va 16-17 yoshda $3,86 \pm 0,03\%$ ga ortishi aniqlandi. Qizlarda 7-17 yoshda ko‘krak qafasi aylanasi o‘rtacha mos ravishda – $57,69 \pm 0,31$, $61,52 \pm 0,64$, $62,85 \pm 0,56$, $64,19 \pm 0,96$, $66,37 \pm 0,77$, $70,18 \pm 0,57$, $73,88 \pm 0,60$, $77,08 \pm 0,43$, $79,26 \pm 0,49$, $79,86 \pm 0,39$ va $82,91 \pm 1,02$ sm ga teng bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida $6,64 \pm 0,05$, 8-9 yoshda $2,16 \pm 0,02$, 9-10 yoshda $2,13 \pm 0,01$, 10-11 yoshda $3,39 \pm 0,02$, 11-12 yoshda $5,74 \pm 0,02$, 12-13 yoshda $5,27 \pm 0,04$, 13-14 yoshda $4,33 \pm 0,04$, 14-15 yoshda $2,83 \pm 0,01$, 15-16 yoshda $0,76 \pm 0,01$ va 16-17 yoshda $3,82 \pm 0,02\%$ ga ortishi aniqlandi.

Sentil-shkala taqsimotida o‘quvchilarida 7-17 yosh diapazonida asosiy antropometrik ko‘rsatkichlari (tana vazni, bo‘y uzunligi, ko‘krak qafasi aylanasi) bo‘yicha <3 intervalda – “juda past” (I interval), 3-10 – “past” (II interval), 10-25 – “o‘rtachadan past” (III interval), 25-75 – “o‘rtacha yoki fiziologik meyor” (IV interval), 75-90 – “o‘rtachadan yuqori” (V interval), 90-97 – “yuqori” (VI interval), >97 – “juda yuqori” (VII interval) qiymatlari aniqlandi.

Tana vazni indeksi (Kettle II indeksi) yordamida o‘quvchilarda (7-17 yosh) o‘g‘il bolalarda tana vazni defitsiti va ortiqcha tana vazni 7 yoshda mos ravishda – 44 va 4%, 8 yoshda – 8 va 12%, 9 yoshda – 45 va 3%, 10 yoshda – 41 va 8%, 11 yoshda – 24 va 17%, 12 yoshda – 22 va 17%, 13 yoshda – 16 va 4%, 14 yoshda – 53 va 6%, 15 yoshda – 28 va 8%, 16 yoshda – 44 va 10%, 17 yoshda – 46 va 9% ga teng bo‘lishi aniqlandi. Shuningdek, qizlar kontingentida mazkur ko‘rsatkichlar qiymatlari 7 yoshda mos ravishda – 21 va 6%, 8 yoshda – 2 va 12%, 9 yoshda – 7 va 3%, 10 yoshda – 16 va 8%, 11 yoshda – 52 va 11%, 12 yoshda – 27 va 11%, 13 yoshda – 35 va 7%, 14 yoshda – 16 va 10%, 15 yoshda – 52 va 7%, 16 yoshda – 38 va 0%, 17 yoshda – 42 va 1% ga teng bo‘lishi aniqlandi.

O‘g‘il bolalarda 7-17 yosh diapazonida tana vazni defitsiti (ozg‘inlik) 8-53% ni tashkil qilishi, ortiqcha tana vazniga ega kontingent ulushi 4-17% ni tashkil qilishi qayd qilindi. Tana vazni defitsiti o‘g‘il bolalarda 7, 9-10, 14-17 yosh diapazonlarida yaqqol ifodalanishi aniqlandi. Qizlarda tana vazni defitsiti (ozg‘inlik) ulushi 7-17 yoshda 2-52% ga teng bo‘lib, 11, 13-17 yoshda maksimal ifodalanishi qayd qilindi. Shuningdek, qizlarda ortiqcha tana vazni ulushi 1-12% ga teng bo‘lib, 8, 14 yoshda maksimal kuzatilishi aniqlandi. Bunda maktab o‘quvchilarida tana vazni o‘zgarish dinamikasi maktabda ta‘lim muhitiga adaptatsiya jarayoni, shuningdek ontogenezda jinsiy balog‘atga yetish bilan

bog‘liq gormonal/fiziologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi tahmin qilindi. O‘z navbatida, maktab o‘quvchilarida tana vazni defitsiti (ozg‘inlik) yoki ortiqcha tana vazni qayd qilinuvchi fiziologik yosh diapazonlari maktabda ta‘lim jarayonini tashkil qilish, ovqatlanish ratsioni va rejimini belgilash, tibbiy-sanitar chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ilmiy asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Maktablarda 1-sinf o‘quvchilarida o‘g‘il bolalarda “Burdon korrektura sinovi” testi asosida “diqqatni jamlash” ko‘rsatkichi (D) o‘rtacha $69,68 \pm 2,15\%$, “diqqatning barqarorligi” ko‘rsatkichi (A) o‘rtacha $1,237 \pm 0,04$ sh.b., “diqqatni bitta holatdan ikkinchisiga qaratish” ko‘rsatkichi (S) o‘rtacha $28,51 \pm 0,24\%$ ga teng bo‘lib, baholash shkalasiga ko‘ra, “yuqori” darajaga mos kelishi aniqlandi. Mazkur kontingent tarkibida “diqqatni jamlash” ko‘rsatkichi (D) bo‘yicha “o‘rtacha” (D=41-60%), “past” (D=20-21%) darajadagilar ulushi mos ravishda – $12,27 \pm 0,17$ va $16,56 \pm 0,23\%$ ga tengligi kuzatildi. “Diqqatning barqarorligi” ko‘rsatkichi (A) bo‘yicha, “o‘rtacha” (A=5-6), “past” (D=7-10) darajadagilar ulushi mos ravishda – $9,35 \pm 0,42$ va $11,08 \pm 0,07\%$, “diqqatni bitta holatdan ikkinchisiga qaratish” ko‘rsatkichi (S) bo‘yicha “o‘rtacha” (S=41-60%), “past” (D=20-21%) darajadagilar ulushi mos ravishda – $7,15 \pm 0,14$ va $6,10 \pm 0,08\%$ ga tengligi aniqlandi. 1-sinf o‘quvchilarida “Diqqatni jamlash” (D), “Diqqatning barqarorligi” (A), “Diqqatni bitta holatdan ikkinchisiga qaratish” ko‘rsatkichi (S) hamda asosiy antropometrik ko‘rsatkichlar (tana vazni, bo‘y uzunligi) o‘rtasida korrelyatsiya bog‘liqlik juda kuchsiz, ko‘krak qafasi aylanasi bilan kuchsiz darajada bog‘liqlik mavjudligi (mos ravishda – $p=0,637$; $p=0,418$; $p=0,577$) aniqlandi.

“Anfimova jadvali” testi bo‘yicha olingan natijalar umumiy holatda mavjud adabiyot ma‘lumotlariga mos keladi va “Intellektual ish bajarish samaradorlik koeffitsenti” (R), “Ko‘rish orqali qabul qilingan axborotlar hajmi” (Q), “Axborotlarni qayta ishlash tezligi” (V) ko‘rsatkichlari, “Topshiriqni bajarish aniqligi” (A) ko‘rsatkichlari o‘rtacha qiymatlari bo‘yicha 8-12 yosh diapazonida maktab o‘quvchilarining intellektual rivojlanish darajasi “o‘rtacha” tavsifga egaligi qayd qilindi [5; 6].

2-6 sinf (8-12 yosh) o‘quvchilarida “Anfimova jadvali” asosida intellektual rivojlanish darajasi va asosiy jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi yaqqol korrelyatsion bog‘liqlik (Spirmen korrelyatsiya qiymatlari) qayd qilinmadi. Shuningdek, 3-cinf (9 yosh) o‘g‘il bolalarda A – “Topshiriqni bajarish aniqligi” ko‘rsatkichi va ko‘krak qafasi aylanasi qiymati o‘rtasida kuchsiz korrelyatsion bog‘liqlik aniqlandi ($r=0,657$).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Панькова М.Н. Жебровская Н.Е. Оценка функционального состояния организма на основе анализа сердечного ритма // Материалы X Междун. симп. “Эколого-физиологические проблемы адаптации”. – Москва (РУДН), 2001. – С.401.
2. Афанасьев Е.А., Васильев В.Н., Терентьева Ю.В. и др. Методические подходы к оценке здоровья младших школьников // Бюллетень Сибирской медицины. – 2003. – №3. – С.61-66.
3. Бутко М.А. Взаимосвязь объема двигательной активности детей младшего школьного возраста с их физической подготовленностью, физическим и функциональным развитием, а также с умственной и физической работоспособностью // Физическая культура, спорт – наука и практика. – 2015. – №2. – С.31-35.

4. Сидоров К.Р. Количественная оценка продуктивности внимания в методике “Корректирующая проба” Б.Бурдона // Вестник Удмуртского ун-та. – 2012. – Вып. 4 (Философия. социология. психология. Педагогика). – С.50-57.

5. Агеева А.В., Скороходова А.А., Семенов Ю.Н. Оценка умственной работоспособности при помощи таблицы Анфимова // Материалы X Всероссийская научн.-практ. конф. молодых ученых “Россия молодая”. – 2018. – С.31301-1-31301-4-б.

6. Гагиева З.А., Бициева И.Б., Тибилев Б.Ю. Некоторые критерии оценки умственной работоспособности школьников 12-13 лет // Успехи современного естествознания. – 2008. – №2. – С.64-67.